



**BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA MARKAZIY OSIYO
MUTAFAKKIRLARINING MA'NAVIY-MA'RIFIY MEROSIDAN FOYDALANISH**

Abduqodirov S B

IIV Jizzax akademik litseyi "Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası boshlig'i t.f.f.d., PhD.

Tel: +99897 329-15-53

Abdushukurova A X

IIV Jizzax akademik litseyi "Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası tarix fani o'qituvchisi

Tel: +99894 916-10-61

Anatasiya: *Ushbu maqolada barkamol avlodni tarbiyashda markaziy osiyoning qadimgi yozma yodgorligi Avesto, Markaziy Osiyo mutaffakirlari Farobiy, Beruniy, Naqshbandiy, Najmiddin Kubro singari buyuk allomalarning fikr mulohazalari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Avesto, Irfon, Tarixi mulki Turkiston Ma'mum akademiyasi, Bayt-ul hikma, Yunesko, Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar, Geodeziya, Hindiston, Masud qonuni, Saydana,*

Annotation.: *Here is given opinionns of Central Asia thinkers Farobiy, Beruniy, Naqshbandiy, Najmiddin Kubro and ancient writing memory of Avesto.*

Key words: *Avesto, Irfon, Tarixi mulki Turkiston, Academy of Mamun, Bayt-ul hikma, Yunesko, Ancient nations memory, Geodeziya, India, rule of Masud, Saydana.*

Анотация. *Вданной статое приводятся высказывания великих мыслителей центральной Азии Фаробий, Нажмиддин Кубро, Беруний, Накшбандий о воспитании гармоничного развития нового.*

Ключевые слова: *Авесто, Ирфон, Юнеско, Tarixi mulki Turkiston, Гедезия, Индия, Закон Масуда, Сайдана, Памятные мемориалы древнейших народов,*

Yulduzlar tunni yoritganidek, har bir xalqning daholari, o'sha xalqning ma'naviyatini yoritib, jahonga ko'z-ko'z qiladi. Har bir inson - katta olam ichra kichik bir olam, inson o'zida biologik, aqliy va ma'naviy jihatlarini mujassam etgan zot. Inson - olamni moddiy va ma'naviy jihatdan o'zlashtiradi.

U olamga kelibdiki, tabiatni moddiy mevasi bo'lgan. havoga, oziq-ovqatga, kiyim boshga, boshpanaga o'zida ehtiyoj sezadi. Insonni moddiy ehtiyoji minimal darajada qondirilgandan so'ng, unda ma'naviylikka ehtiyoj tug'iladi. Hozirgi kunda o'sib-ulg'ayotgan bolalarni jismonan sog'lom, ma'nan yetuk va barkamol avlod qilib tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

Bu ishni amalga oshirishda yoshlar ongi va ma'naviyatini ezgu g'oyalar bilan kengaytirish, ularning ma'naviy-ma'rifiy dunyosini mustahkamlash orqali yomon g'oyalarga nisbatan ma'naviyat to'g'onini barpo etishda bizga qadimdan to shu davrgacha Markaziy Osiyodagi ma'naviy-ma'rifiy meroslardan foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Qadimiy yozma yodgorlik - "Avesto"da insoniyatning farovon hayot - poklik va rostlik, mehnat va faollik, ahillik va xushnudlik haqidagi g'oyalar tarannum etilgan. "Avesto"ning muallifi Zardusht uchun eng ulug' inson erga ishlov berib mo'l hosil oladigan, obod va sersuv yaylovlari va bog'lari bor hunarmand va dehqon hisoblangan. "Avesto"ning aqidalari kishilarni faollikka, yaratuvchilikka, "nokomil dunyo"ni takomillashtirish uchun intilishga undab kelgan.³⁵ Zardusht, insonning yashashdan maqsadi metindek e'tiqodli bo'lib, yurtni obod, elni farovon, turli qavmlarni bir-biri bilan inoq bo'lib yashashini ta'minlashdan iborat deb bilgan.³⁶

"Avesto"da bayon etilgan ta'lim va tarbiyaning hayotiy mohiyati, muallim-ustozlarning jamiyat ma'naviy qiyofasini belgilashdagi, inson kamolotidagi o'rni xususidagi fikrlar alohida e'tiborga sazovordir. Zardushtning ilk faoliyatidanoq iisonlarni tili rost, qalbi pokiza, halol mehnat, yaxshi kasb-korga ega bo'lishlikka da'vati ko'rinib to'rgan. "Jahon komil emas, balki komillik tomon intilishdadir" deb uqtiradi Zardusht. Inson olamni komillikka etkazmoq uchui chin qalbdan, fidoyilik bilan mehnat qilmog'i lozimligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Uningcha, inson har jihatdan bilimli bo'lmog'i, olamni to'g'rilik bilan tanimog'i, idrok etmog'i darkor. U yaxshini-yomondan, go'zalni-xunukdan, sarani-nosaradan, poklikni-nopoklikdan, dononi-nodondan ajrata bilmog'i lozim, deydi. "Avesto" 3 ming yillar oldingi davrda jamlanganini hisobga olsak, barkamol avlod muammosi bizda ancha qadim tarixga ega.³⁷

Markaziy Osiyoda IX-XII asrlarda yashab ijod qilgan buyuk mutafakkirlarning ma'naviy-ma'rifiy ulkan merosi nafaqat shu hudud balki butun dunyo ma'naviyat xazinasini boyitgandir. Markaziy Osiyoga arablar bosqinidan so'ng ilmiy salohiyati yuqori insonlar o'sha davrdagi xalifalik madaniyat markazi bo'lgan Bog'dodga yig'ilishadi. Bog'dodda "Bayt-ul hikma" tashkil etilib, u yerda Markaziy Osiyolik mutafakkirlardan Ahmad Farg'oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad ibn Abdullox Marvaziylar ilmiy ijod qilganlar. 9-10-asrlarda O'rta Osiyoda fan ilmiy asoslarga ega edi. Uning ildizlari O'rta Osiyo, ayniqsa, Xorazm, shuningdek Bobil, Eron, Hindistonning antik dunyosiga va qadimgi madaniyatiga borib taqalar edi. 9-12-asrlarda arab tilida asarlar yozgan eng mashhur olimlar Ahmad Farg'oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abusalx Masihiy, Abulhayr Xammar, Abunosir Arron va boshqalar edi.

XI-XII asrlarda ijtimoiy fanlar ham anchagina taraqqiy etdi. Masalan, shoir Abu Abdullo Rudakiyning prozaik asarlari, Abulqosim Firdavsiyning «SHohnoma»si, Majididdin Admoning "Tarixi mulki Turkiston" ("Turkiston tarixi"), Nizomulmulkning "Siyosatnoma"si, Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik" asarlari shu davrga oid bo'lib, undan tashqari shu davrlarda Zamaxshariy, Mahmud Qoshg'ariy, Amak Buxoriy, So'zani Samarqandiy kabilar ham ijod etdilar.³⁸

Sharq Uyg'onish davri ulug' allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni etishtirdi. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu

³⁵ Asqarov A. Jo'raqulov M. "Eneolit va bronza davrida O'rta Osiyo" Samarqand.: 1984 yil 86-bet

³⁶ N. Jo'rayev "O'zbekiston tarixi" T.: O'qituvchi, 2004 yil 76-bet

³⁷ Asqarov A.A. "O'zbekiston tarixi" T.: Fan 1992 yil 113-bet

³⁸ Muhammadjonov A. "O'zbekiston tarixi" T.: 1999 yil 56-72 betlar



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Rayhon Beruniy, Ahmad al-Fargʻoniy, Umar Xayyom, Mirzo Ulugʻbek jahonshumul kashfiyotlar qildilar. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad Gʻazoliy, Nasafiy Aziziddinlarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi, olam, odam va jamiyat yaxlitlikda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi chuqur ishlab chiqdi.³⁹

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Oʻzlugʻ Tarxon al-Farobiy hozirgi Shimkent viloyatining Forob degan joyda 873 yilda tugʻilgan. U Toshkent, Samarqand, Buxoroda oʻqigan. Farobiy 70 dan ortiq tilni bilgan va uning 160 dan ortiq asari maʼlum. Zamondoshlari uni "Sharq Arastusi" deb nomlaganlar. U Aflotun, Aristotel, Evklid, Ptolomey asarlariga sharh yozgan. Uning "Kalom fi-l javhar" (Substanstiya haqida soʻz), "Kitob al-Burhon" (Isbot kitobi), "Ixso al-ulum" (Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi), "Kitob ul-musiqqa al-kabir" (Musiqqa haqida katta kitob) va boshqa asarlari mashhur. Maʼrifat, - tarbiyalanuvchining hohish va irodasini kerakli yoʻnalishda boshqarish sanʼatidir, - deydi Farobiy. Uning taʼkidlashicha, insonning eng yuksak xususiyati uning baxtga erishganligidadir. Baxtga esa, — deydi alloma, faqat foydali bilimlarni oʻzida jamlash orqaligina erishish mumkin. Chunki inson dil roxatining eng yuqori choʻqqisi - bilim olish jarayonidir.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy Xorazmda tugʻilgan. 1073 yilda YUNESKO tashabbusi bilan Beruniy tavalludining 1000 yilligi jahon miqyosida nishonlandi. Amerikalik tarixchi Sarton XI asrni "Beruniy asri" deb taʼriflaydi. Beruniy Maʼmum akademiyasida faoliyat koʻrsatdi, keyinchalik Gʻaznada yashadi. U fanning astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geografiya, geologiya, formologiya, falsafa, xronologiya, tarix va shu kabi talay fanlarga ulkan hissa qoʻshdi. Uning 60 dan ortiq asari bizgacha etib kelgan. Shulardan "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Geodeziya", "Hindiston", "Masud qonuni", "Saydana" (Mineralogiya) asarlari mashhur.

Qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn al-Beruniy "olim bilim oluvchilarga qalbini yomon illatlardan, inson oʻzi sezishi mumkii boʻlmagan holatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, behuda raqobatdan, ochkoʻzlik va shon-shuhratdan saqlanishi zarurligi" ni uqtiradi. U barcha illatlarning asosiy sababchisi bilimsizlikda deb bilgan. Bilimlarni egallashda esa kishida bilimga intilish, qiziqish va ijtimoiy muhitning rolini alohida taʼkidlaydi. Bilim olishda tushunib oʻrganishga, oʻrganuvchining maʼnaviy poklikka rioya etishiga jiddiy alohida eʼtibor bergan. Beruniy fikricha, axloqiylik insonning eng asosiy sifati boʻlishi kerak. "Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida shunday deydi: "Faxrlanish-haqiqatda yaxshi xulq va oliy feʼldir, oldin ketishu, ilmu hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopokliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular etishmasa, hukm uning zarariga boʻladi".

Ahmad ibn Muhammad al-Xivaqiy al-Xorazmiy Markaziy Osiyoning shayxul-mashoyixlaridan biri, "Kubroviya" tariqatining asoschisi boʻlib, kunyasi "Abul-jannob" (taqvodorlar otasi)dir. Shariat va tariqat ilmining buyuk donishmandlaridan biri boʻlganligi uchun "Kubro" (ulugʻlarning ulugʻi), "Najmiddin" (dinning yulduzi) degan fahrli laqab

³⁹ История народов Средней Азии и Казахстана М. 1974 й 98-бет



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

otlarini olgan. Iste'dodli muriddlar tarbiyalashda mahorat kursatgani sababli uni "Shayxi valitarosh" (valilarni voyaga etkazuvchi) ham deganlar. Mo'g'illar Xorazmga kelganda, shogirdlari bilan birgalikda dushmanga qarshi ozodlik uchun kurashda shahid bo'ladi. Uning qabri Ko'hna Urganchdadir. Uning maqsadi odamlarni ham jismonan, ham aqliy-tafakkuriy, ham ruhiy-ma'naviy jihatdan etuk qilib tarbiyalash bo'lgan. Najmiddin Qubro tariqat bilan muradlikni bir-biriga qo'shdi, aqliy poklik, mardlik, hojatbarorlik g'oyalarini targ'ib etdi. Ilohni sevish bilan yaxshi insonlarni sevishni birga olib qaradi, nafsni qattiq qoraladi va shuning uchun u taqvodorlar piri sifatida nom chiqardi. Irfon (bilish nazariyasi)da aqliy va hissiy bilishni birlashtirdi, tasavvufda oriflik martabasini oldinga surib, Maqomatning (darajalarga ajratishning) o'nta bosqichini joriy etdi. Qubro ranglarning inson ruhiyatiga ta'sirini kashf etdi. Uningcha xilma-xil ranglar moddiy olam o'zgarishlari belgisi bo'lsa, rangsizlik-xudo olami belgisidir. Undan risolalar, diniy-falsafiy ruboiylar meros qolgan.

Sayyid Muhammad ibn Jaloliddin bo'lib, mashhur shayx, naqshbandiylik tariqatining asoschisi. U Buxoro shahri yaqinidagi Qasri Hinduvon qishlog'ida tug'ilgan va shu erda vafot etgan. Bahouddin Naqshbandiy xalq tilida "Bahouddini Balogardon" deya ulug'langan. U insonlarni halol-pok bo'lishga, o'z mehnati bilan rizq-ro'z topib yashashga, muhtojlarga yordam berishga, kamtar va sofdil bo'lishga da'vat qiladi. U islomni tozalash, ilk holiga qaytarish g'oyasini olg'a surgan, insonlarni faqirlikka, kambag'allikka undaydi, lekin xayr-ehson hisobiga emas, balki faqat o'z mehnati bilan yashashni yoqlaydi. "Dil ishq (Xudo)da, qo'l mehnatda band bo'lsin" ("Dil ba yoru, dast ba kor") deydi.

Uning ta'limoti Yassaviy ta'limotidan farqli bu dunyo ishlaridan yuz o'chirmaslikni, xudoni dilga joylab mehnat qilmishlikni, Harom ishlardan o'zni tiyishni targ'ib etadi, o'g'rilik, firibgarlik, yolg'onchilik, ta'magirlik, boylikka hirs qo'yishni illat deb hisoblaydi. Naqshband dehqonchilik bilan shug'ullanadi, shundan olgan mahsulot va daromad evaziga kun kechiradi.⁴⁰

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Asqarov A. Jo'raqulov M. "Eneolit va bronza davrida O'rta Osiyo" Samarqand.: 1984 yil 86-bet
2. N. Jo'rayev "O'zbekiston tarixi" T.: O'qituvchi, 2004 yil 76-bet
3. Asqarov A.A "O'zbekiston tarixi" T.: Fan 1992 yil 113-bet
4. Muhammadjonov A. "O'zbekiston tarixi" T.: 1999 yil 56-72 betlar
5. История народов Средней Азии и Казахстана М. 1974 й 98-bet
6. N. Jo'rayev "O'zbekiston tarixi" T.: O'qituvchi, 2004 yil 127-129 betlar

⁴⁰ N. Jo'rayev "O'zbekiston tarixi" T.: O'qituvchi, 2004 yil 127-129 betlar